

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA KITOBXONLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MEZONLARI**

Tengellova Dilfuza Urazali qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Magistratura yo'nalishi

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi

2-bosqish magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14229427>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Kitob – beg‘araz o‘qituvchi” ekanligini hisobga olib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy-estetik motivlarni shakllantirishda kitob mutolaasi o‘rni va kitobxonlik madaniyatidan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kitobxonlik, mutolaa, adabiyot, maktab, o‘quvchi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning kitobxonlik faoliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish va ularda kitob o‘qish odatini shakllantirish kelajakda muvaffaqiyatli o‘qish va ta'lim olishning poydevorini yaratadi. O‘zbekistonda ham ta'lim sohasida o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O‘zbekistonda katta e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma’nan yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko‘rsata oladigan ko‘ngilli, milliy g‘urur hissi ustun bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” [1] va o‘sib kelayotgan yosh avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas’uliyat yuklamogda.

ASOSIY QISM


Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa albatta, maktab ta’limining o‘rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o‘qituvchilarining oldiga o‘quvchilarda milliy xususiyatlardan bo‘lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg‘u bermoqdalar. Ma’naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo‘jizaga ta’rif berib “...yetti mo‘jiza inson aqlining,



tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulugʻligiga qoʻyilgan mangu obida boʻlib kelmoqda. Biroq, shunday boʻlsa-da, olamda yana bir moʻjiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti moʻjizaning jamiki ulugʻvorligi, goʻzalligidan kamlik qilmaydi. Bu moʻjiza – kitob. Kitobning moʻjiza, moʻjiza boʻlganda ham birinchi moʻjiza ekanligini koʻpgina buyuk odamlar qayd qilgan”, – deb yozadi. Jumladan, yozuvchi va dramaturg C.Sveyg “Qaerdaki kitob bor ekan, u yerda odam oʻzi bilan oʻzi uzlatda, oʻz koʻlami doirasida qolib ketmaydi, u oʻtmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuygʻulariga oshno boʻladi”, – deb yozadi. Yozuvchi va faylasuf J.Svift “Kitoblar aql farzandlaridir” desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy “Kitoblar donishmandlikni yoyish qurolidir”, – deydi, faylasuf va tarixchi F.Bekon esa “Kitoblar zamon toʻlqinlarida suzuvchi va oʻzining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir”, – deb yozadi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu, olimlar kitobning moʻjizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, manguлик va maʼnaviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq doʻstga, davr koʻzgusiga oʻxshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

Oʻquvchi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targʻib qilish koʻpgina zararli illatlarni oldini olishga sabab boʻladi. I.S.Zbarskiy shaxsda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini taʼkidlab oʻtgan [2]:

- 1) Kognitiv komponent – oʻquvchilarda maʼnaviy ongini, badiiyeruditsiyani, dunyoqarashini shakllanishi bilan tavsiflanadi.
- 2) Emotsional komponent – oʻquvchilarda estetik hislar, emotsional qadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi.
- 3) Xulq-atvorkomponenti – oʻquvchilarning ijtimoiy xulq meʼyorlariga rioya etish koʻnikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.



1-rasm. I.S.Zbarskiy bo'yicha kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning komponentlari.

Kitob mutoalasi shaxsning kompleks taraqqiyotiga ta'sir etadi. Ye.P.Suvorov, M.P.Voyushina, Ye.A.Kupirovalar kitobxonlik faoliyat yo'nalishiga qarab shaxsning taraqqiyotiga ta'sir etishini asoslab berganlar. Jumladan, kitobxonlik o'quvchida konstruktiv, tarbiyaviy, qadriyatli, kommunikativ, analitik faoliyatni jadallashtiradi. Birgina "Sinchalak" qissasini oladigan bo'lsak, "o'zi kichkina, nimjon bo'lsa ham osmonni ko'targulik quvvati, g'ayrati bor" Saida Alieva va "xotin kishi rahbarlik qilsa kalavasi uchini yo'qotib qo'yadigan" Arslonbek Qalandarov, "gapga kelganda burganing yo'talidan bo'ron qo'porishga qodir" bo'lgan Eshon obrazlari o'quvchilarda shaxslararo munosabatlarni konstruktiv asosda qurish, jamiyat va shaxs orasidagi munosabatlarda axloqiy tamoyillarni, milliy qadriyatlarni tahlil qilish asosida ratsional altruistik pozitsiyaningshakllanishida ichki motiv vazifasini bajaradi.

Boshlang'ich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirishda bir nechta asosiy kategoriyalar mavjud. Ularning har biri o'quvchilarning o'qish faoliyatini samarasini oshirishga yordam beradi:

Kitob tanlash va moslashtirish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kitoblarni tanlashda ularning yoshiga mos, qiziqarli va oson tushuniladigan asarlar tanlanishi lozim. Bu kitoblar bolalarning psixologik va intellektual rivojlanishiga mos bo'lishi kerak. Kitoblarning badiiy qiymati va ta'limiy ahamiyati ham muhim omil hisoblanadi. O'quvchilarni tanlab o'qishga qiziqtirish uchun rang-barang, tasvirlar bilan boyitilgan kitoblar va hikoyalar tanlanadi.

O'qish faoliyatini tashkillashtirish

Kitobxonlikni rivojlantirishda o'qish faoliyatining muntazamligi muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maxsus o'qish vaqtlari belgilab, ular uchun o'qish kechalari yoki haftalik o'qish mashg'ulotlari tashkil etilishi kerak. Bu jarayon o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qishga bo'lgan odatlarini mustahkamlaydi.

O'qishdan keyingi faoliyat

O'qish jarayonini yanada samarali qilish uchun o'qishdan keyingi faoliyat ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga o'qigan kitoblari haqida qisqacha so'zlab berish, erkin fikr bildirish, o'qiganlaridan xulosa chiqarish va savollarga javob berish orqali o'qish faoliyatini jonlantirish mumkin. Bu nafaqat kitobni tushunishga yordam beradi, balki o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi va fikrlash doirasini kengaytiradi.



O'quvchilarni guruhliy o'qishga jalb qilish

O'quvchilarning o'zaro muloqotini va kitoblarni muhokama qilishlarini ta'minlash maqsadida guruhliy o'qish faoliyatlarini tashkil etish muhimdir. Guruhli o'qish o'quvchilarga bir-birining fikrlarini eshitish, o'qishning turli jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali o'quvchilarning fikrlash va nutqiy ko'nikmalari rivojlanadi.

O'qish motivatsiyasini oshirish

Kitobxonlikni rivojlantirishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish juda muhim. Ularni o'qishga rag'batlantirish uchun turli xil o'yinlar, tanlovlar, kitob o'qish bo'yicha musobaqalar tashkil etish mumkin. Bunday tadbirlar o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularga o'qish jarayonidan zavq olishlariga yordam beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak:

- O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy ongining oshishiga xizmat qiladi;
- Sharq allomalari asarlari, afsonalardagi futuvvat ilmi negizida altruistik motivlarning namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin;
- Altruizm o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biridir;

Maktablarda murabbiylik soatlarida badiiy asar mutoalasini targ'ib qilish orqali o'quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2017. B.48.
2. Zbarskiy I.S. Adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar (4-8): o'qituvchi uchun qo'llanma. - M.: Ma'rifat, 1980. - 208 b.
3. Kutubxonachining ma'lumotnomasi. - Sankt-Peterburg, "Kasb", 2010. -S. 187.
4. Yastrebova E.M. Kutubxonalarni strategik boshqarish va strategik rejalashtirish: tarixiy ekskursiya, maqsad va mohiyati. Leksiya. - M.: MGUK, 2018. -S. 47.

